BEHBUDIYGA BAG'ISHLANGAN MARSIYALAR

Normat Yuldashev

filologiya fanlari doktori, Termiz davlat universiteti, O'zbekiston.

Annotatsiya: Ma'lumki, Behbudiy 1919-yilda Qarshida maxfiy ravishda qatl qilingan. Oradan bir yil o'tib uning o'limi oshkor bo'lgan. Jadid shoirlari A.Fitrat, S.Ayniy, Cho'lpon bu musibatni o'z marsiyalarida ifoda etdi. Cho'lponning marsiyasi "Mahmudxo'ja Behbudiy xotirasiga" deb nomlangan. Cho'lponning Behbudiyga bag'ishlangan marsiyasi an'anaviy o'n bir hijoli barmoqda yozilgan. Sadriddin Ayniy Behbudiy hazratlari haqida dastlab u kishining qatli munosabati bilan she'riy firoqnoma-marsiyasini yozadi. O'zining ustozga bo'lgan qalb izhorlarini bayon qiladi. Shundan so'ng "Zarafshon" gazetasining 1922 yil 25 mart sonida chop etilgan "Behbudiy hazratlari to'g'risida xotiralarim" yodnomasida ul zotning millat va jamiyat oldidagi xizmatlarini e'tirof etadi. Fitrat o'zining "Behbudiy sag'anasini izladim" marsiyasida o'zining ustoziga bo'lgan ruhiy iztiroblarini izhor qiladi. Maqolada ushbu masalalar yuzasidan fikr-mulohazalar bildirilgan.

Kalit so'zlar: jadid, she'r, marsiya, milliy adabiyot, milliy adabiyot, Turon, Turkiston, milliyat, an'anaviylik.

Abstract: It is known that Behbudiy was secretly executed in Karshi in 1919. A year later, his death was revealed. Jadid poets A. Fitrat, S. Ayniy, and Cholpon expressed this tragedy in their laments. Cholpon's lament was called "In Memory of Mahmudkhoj Behbudiy." Cholpon's lament dedicated to Behbudiy is written in the traditional eleven-syllable meter. Sadriddin Ayniy first wrote a poetic elegy-lament about Behbudiy in response to his execution. He expressed his heartfelt

feelings for his teacher. Then, in his memoir "My Memories of Behbudiy Hazratlari", published in the March 25, 1922 issue of the "Zarafshon" newspaper, he recognized his services to the nation and society. Fitrat expresses his spiritual anguish towards his teacher in his "I searched for Behbudi sagana" dirge. Opinions on these issues are expressed in the article.

Key words: Jadid, poetry, dirge, national literature, national literature, Turan, Turkestan, nationality, traditionalism.

Mahmudxo'ja Behbudiy Turkiston jadidchilik harakatining yo'lboshchisi va rahnamosi edi. U yangi milliy adabiyot, yangi milliy teatr, yangi milliy matbuotga tamal toshini qo'ydi. Uning millat istiqloli va istiqboli yo'lidagi dadil qadamlari tabiiyki uning g'animlarini tahlikaga soldi. Behbudiyning zamondoshi, hammaslagi Hoji Muinning "Mufti Mahmudxo'ja Behbudiyning qanday shahid bo'lg'onlig'i va uning tomonidan yozidgan vasiyatnoma"da keltirilishicha: "Behbudiy afandi 1919 yil 25 martda yo'ldoshlari Mardonqul Shomahmud o'g'li va Mahammadqul O'rinboy o'g'illari bilan Samarqanddan Buxoro tuprog'iga o'tkan, shundan qaerga borg'anlig'i bilinmay, bu to'g'rida turli so'zlar so'ylang'an va gumonlar qiling'on edi. Oxiri, xalq orasida shayx bo'lg'on so'zlardan gumon g'olib ila anglashilg'an ediki, Behbudiy afandi mazkur ikki yo'ldoshlari ila zolim amir Olimxonning g'addor beklari qo'lida shahid bo'lg'onlar. Bultur (1921 yil) mart oyida Buxoro tuprog'idan kelgan o'rtoq Hojimurod Xudoyberdi o'g'li, Behbudiy hazratlari bilan yo'ldoshlari Muhammadqul va Mardonqul afandilarni Qarshi shahrida, Qarshining begi Tog'aybek qanday shahid etganligi haqida durust ma'lumot keturdi"[1]. Behbudiyning qanday shahid bo'lganligi yuzasidan

[1] https://kh-davron.uz/yangiliklar/muborak-kin/hoji-muin-mahmudxoja-behbudiy-haqida.html

adabiyotshunoslikda har xil qarashlar mavjud. Professor N.Karimov "Mahmudxo'ja Behbudiy" kitobida yozishicha: "Atoqli adabiyotshunos olim Izzat Sulton o'zining ilmiy faoliyatini professor Fitrat rahbarligi ostida boshlagan. Izzat Sulton kunlarning birida Behbudiyning o'limi to'g'risida bahs borayotgan kezlarda bizga bunday so'zlarni aytgan edi: "Fitrat Behbudiyning o'limida Buxoro amirini emas, balki Turkistondagi Sho'ro hokimiyatini aybdor, deb bilar va dorilomon zamonlar kelganida ana shu haqiqatning yuzaga chiqishini istar ekan. Uning aytishicha, Behbudiyni GPU agentlari Buxoro amirining johil odamlariga tutib berishgan. Sho'ro davlatining Behbudiyni amir qo'li bilan o'ldirishdan kuzatgan maqsadi esa, Fitratning aytishicha, bir tomondan, "Yosh buxoroliklar"da amirga nisbatan qahr va nafrat to'lqinini uyg'otish, ikkinchi tomondan, "Yosh buxoroliklar" yordamida Buxoro amiriga qarshi yurishni boshlash, amirlikni tugatish va uni Sho'ro hokimiyati tarkibiga qo'shib olish edi"[2]. Bizningcha ham Behbudiy qatli bilan bog'liq Fitratning ma'lumotlari haqiqatga ancha yaqin. Behbudiyning o'limi haqidagi xabar 1920 yilning bahorida ma'lum bo'ldi. O'sha yilning aprelida butun Turkiston motam tutdi. Sadriddin Ayniy, Abdurauf Fitrat va Cho'lponning marsiyalari shu munosabat bilan yozildi.

S.Ayniyning g'azal marsiyasi "Behbudiy ruhiga ithof" deb nomlangan, qisqa bo'lsada nihoyatda ta'sirli yozilgan. Ayniy Behbudiy bilan 1908 yilda tanishgan. Bu haqda Ayniy "Zarafshon" gazetasining 1922 yil 25 mart sonida e'lon qilingan "Behbudiy hazratlari to'g'risida xotiralarim" yodnomasida ma'lumotlar bergan. Ushbu g'azal marsiyada ham ulug' ustozning Turon, Turkiston uchun

[2] Н.Каримов. Маҳмудхўжа Беҳбудий. http://www.ziyouz.com/. 68-бет.

qilgan xizmatlari e'tirof etilib "ustozi oliyshon", "ajubai davron" sifatlari bilan ulug'lanadi. Sening millat tarixi, ma'rifati oldidagi noming, shoning dunyo turguncha turadi deydi shoir:

Sani mundin buyon Turon ko'rolurmu, ko'rolmasmu?

Saning mislingni Turkiston topolurmu, topolmasmu?

San, ey ustodi oliyshon, eding ajubai davron,

Otingni tilga har inson buyuk hurmat-la olmasmu?

Saning tarixiy davroning, saning osoru urfoning,

Saning noming, saning shoning jahon qoldiqcha qolmasmu?

Ayniy chuqur iztirob ila ulug' ustozga murojaat qiladi. Sening qoningni to'kkanlar, boshingni kesgan badniyat, toshyurak, xudodan qaytgan g'ofil qotillar xaloyiqdan uyolmaydimi deb xitob qiladi. Lekin kelajak avlod, Vatan avlodlari hamisha seni, istiqlol yo'lida shahid ketganlarning intiqomini albatta olishini ta'kidlab o'tadi.

Vatan avlodi yod etdi, sani hurmat-la shod etdi,

Va lekin intiqomingni ololurmu, ololmasmu?

Jahonda zulmdur zohir, jahon xunxo'r, jahon jobir,

Jahondan bir zamon oxir sitamgarlik yo'qolmasmu?[3]

S.Ayniyning "Behbudiy afandini esga tushurib, qatl va qatlgohga xitoban" she'ri ham 1920 yilning aprelida yozilib e'lon qilingan. Fojiaviy pafosda yozilgan ushbu

[3] Маҳмудхўжа Беҳбудий. Танланган асарлар. Тошкен. "МАЪНАВИЯТ". 2006. 257-бет.

she'r qarg'ish va la'nat ohanglariga yo'g'rilgan. Minglab yigitlarning boshini tanasidan judo qilgan, minglarcha o'g'lonlarni zindonlarda chiritgan, faqat qon to'kmoq ila mashg'ul bo'lgan manfur insoniyat, vahshoniyatga qarshi shoir adoqsiz qarg'ishlar yuboradi:

Ey madfuni insoniyat, ey maqtuli ahror!
Ey markazi vahshoniyat, ey mahmani ashror!

Minglarcha yigitlar boshini tandan ayurding,
Minglarcha asoratzada o'g'lonlari qirding.

Qon to'k, yana qon to'k, yana qon to'k!
Qon seli bilan oqibat-al-amr, yoril, cho'k!

Qon to'k-da, cho'mul qong'a! Yiqil qong'a! Bo'g'ul, o'l!
To qonga bulg'anmasin ozoda biror qo'l!

Shoir zolimlarga qarata Qur'onni, shariatni oyoq osti qilding, Behbudiy kabi dohiylarni osding, kuningni kayfu safo bilan o'tkazding, lekin ko'zingni och, bu qilmishlaring abadiy qolmaydi, intiqom kuni albatta keladi deb o'tli nidolar qiladi:

Qur'onni, shariatni ayog' ostida bosding,

Behbudiy kabi dohiyi Turonni-da osting!

Bosh kes, yana bosh kes, necha kun kayfu safo sur!

Lekin ko'zingni och! Kelasi kunlaringi ko'r!

Bilgilki, bu ahmol emas!

Ahmoli ilohi!

Bilgil, abadiy qolmayajak muncha malohi!

Bir kun kelur albat, kelur albat, kelur albat!

Darhaqiqat, "M.Behbudiy xotirasiga bag'ishlangan S.Ayniy marsiyalari an'anaviy marsiyalardan ancha farq qiladi. Ular olamdan o'tgan buyuk shaxs haqidagi iztiroblardan iborat bo'lsa ham, siyosiy-ijtimoiy ahamiyatga ega. Ularda buyuk ma'rifatparvar, jadidchilik harakatining otashin rahnamolaridan bir Mahmudxo'ja Behbudiyning tarix oldidagi tashabbusi hamda xizmatlariga badiiy haykal qo'ygandek bo'ldi".[4]

Fitratning "Behbudiy sag'anasini izladim" marsiyasi ham 1920 yilda yozilib vaqtli matbuotda e'lon qilingan, so'ng "O'zbek yosh shoirlari" to'plamiga kiritilgan. She'r sokin manzara bilan boshlanadi:

Cho'kmishdi yer uzra olam to'sig'i,

O'ksuzlik boyqushi qanot qoqardi.

Botuvda qizorib turg'on bulutdan

Ezilgan ko'nglimga motam yog'ardi.[5]

Tasvirda keltirilgan boshqushning olam uzra qanot qoqishi, ezilgan ko'ngilga qizargan bulutlardan motam yomg'irlari yog'ishi lirik fojelikni yanada kuchaytiradi. Keyingi tasvirlarda "qon hidli yel", "armon guli", "bahorsiz cho'l", "nozli yaproqlar"ning so'lib sarg'ayishi metaforik birikmalarida o'z yo'qotganini izlayotgan lirik "men" kechinmalari izhor qilingan:

[4] Проф. Р. Орзибеков. Устоз Айнийнинг ёднома ва марсиялари. //Барҳаёт шеърият. (Садриддин Айний шеъриятида анъана, ижодийлик ва бадиийлик муаммолари" мавзусидаги халқаро илмий конференция материаллари). Бухоро.2004. 47-бет.

[5] Фитрат. Танланган асарлар. I жилд. Тошкент. "Маънавият". 2000. 40-бет.

Haqsizlik shahrining qon hidli yeli

Armonim gulidan bir yaproq uzub,

Bahorsiz cho'llarg'a sovurib qo'ydi.

Ul nozli yaprog'im so'lib, sarg'ayub,

Yo'qsul qolg'anlarday har yon yugurdi.

Marsiyaning uchinchi qismida o'z yo'qotganini topmagan, zolimning taxtini titratgan bir kuch, bir tovush qichqirig'i ("- Otamning qabrini qay yerga yoshurding") yangraydiki, bu marsiyaning kulminatsion nuqtasini belgilaydi.

Cho'lponning ilk marsiyasi "Ma'rifatparvar bobomiz Ismoil Gaspirinskiy hazratlari haqinda ta'ziyanomamiz" deb nomlangan. Marsiya ilk bor "Sadoyi Farg'ona" gazetasining 1914-yil 24-sentyabr sonida "Hamidiy" taxallusi bilan bosilgan. Taxallus bois ushbu marsiya Cho'lponga tegishli ekanligini anglatadi. Dinu millat ma'rifati yo'lida "jon" bo'lgan ulug' ustozning oltmish besh yoshda ajal mayini no'sh etib bemahal ketganligi yosh lirik qahramonni iztirobga soladi. Marsiya o'n ikki baytdan iborat bo'lib masnaviy yo'lida yozilgan.

Cho'lponning ikkinchi marsiyasi "Mahmudxo'ja Behbudiy xotirasiga" deb nomlangan. Cho'lpon marsiyasi yetti banddan iborat bo'lib, 4+4+4+4+4+4+2 tarzida cho'lponona bandlashgan. Fitratda ham Cho'lponda ham Behbudiy qabrining belgisizligi xususida so'z boradi. Chunki Behbudiy va uning rafiqlari katl etilgandan so'ng qabrlari tekislab yuborilgan. Cho'lpon shunga ishora qilayapti.

Belgisiz qabringni qora tunlarda

Amalimning shamin yoqib izladim.

Qizil va pok qoning islarin sochgan,
Kuchsiz kuyi yurishimni tezladim...[6]

Cho'lpon "Somon parcha" she'rida "Muhit kuchlik ekan egdim bo'ynimni" deb yozgan edi. Shoir ushbu marsiyada ham ulug' yo'lboshchiga murojaat qilib "Men-da ojiz u muhitning oldida" deb yozadi.

Men-da ojiz u muhitning oldida
Qabring topib, ko'z yoshimni to'kmakka
Hamda achchiq hiddatim-la ul yerda
Oq kallalik qora devni so'kmakka.

Shoir "Oq kallalik qora dev" yoyiq metaforasi orqali yurtimizga xo'ja bo'lmoq istagan mustamlakachilarga munosabat bildirgan.

Marsiya an'anaviy o'n bir hijoli barmoqda yozilgan. Jadidlar uchun ulug' yo'lboshchidan judo bo'lish og'ir bo'lgan. Shu vajdan shoir Behbudiy o'limiga sabab bo'lganlarga o'z nafratini bildiradi. Quyidagi tasvirlardagi "motam guli", "shodlik guli" antitezalari orqali inson huquqlari poymol etilgan ijtimoiy muhit manzaralarini ifoda etgan

Aziz otam qo'limdagi gullarning
Motam guli ekanini bilmaysan.
Shodlik guli ko'pdan beri so'lganin
Yer ostida pok ruhingla sezmaysan.

Mahmudxo'ja Behbudiy Turkistonning qora tunlarini yoritgan porloq yog'du edi. Uning favqulodda fojiali o'limi butun o'lkani larzaga soldi. Uning porloq ruhiga bag'ishlangan ushbu marsiyalar o'sha davrning ijtimoiy-siyosiy manzaralarini

[6] Чўлпон. Асарлар. Тўрт жилдлик. I жилд. Тошкент. "Akademnashr". 2016. 62-бет.

tasavvur qilishga imkoniyat yaratadi. Ushbu marsiyalarning umrboqiyligi ham ana shu xususiyatlar bilan belgilanadi.

Adabiyotlar

1. https://kh-davron.uz/yangiliklar/muborak-kin/hoji-muin-mahmudxoja-behbudiy-haqida.html
2. https://www.mamun.uz/bulletin
3. N.Karimov. Mahmudxo'ja Behbudiy. http://www.ziyouz.com/. 68-bet.
4. Mahmudxo'ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. Toshken. "MA'NAVIYaT". 2006. 257-bet.
5. Prof. R. Orzibekov. Ustoz Ayniyning yodnoma va marsiyalari. //Barhayot she'riyat. (Sadriddin Ayniy she'riyatida an'ana, ijodiylik va badiiylik muammolari" mavzusidagi xalqaro ilmiy konferensiya materiallari). Buxoro.2004. 47-bet.
6. Fitrat. Tanlangan asarlar. I jild. Toshkent. "Ma'naviyat". 2000. 40-bet.
7. Cho'lpon. Asarlar. To'rt jildlik. I jild. Toshkent. "Akademnashr". 2016. 62-bet.
8. Mardonova Lobar Umaraliyevna. (2024). TARIXIY MANBALARDA AMIR TEMUR OBRAZINING BADIIY TALQINLARI. IMRAS, 7(6), 56–60.
9. Zafariddin, Temirov, and Xujanova Nasiba. "The Triumph of Light Over Darkness." *American Journal of Research in Humanities and Social Sciences*, vol. 33, 20 Feb. 2025, pp. 34-37.
10. Farida, X., To'xtayeva, D., Murtazayeva, M., & Abdurahmonova, D. (2025). SAB'AI SAYYOR" DOSTONINING BOBLARI BO'YICHA TAVSIFI. *Shokh Articles Library*, *1*(2).

11. Dilshoda, A. (2025). MUHAMMAD YUSUF IJODINING ADABIYOTIMIZDA TUTGAN O 'RNI. Global Science Review, 1(1), 388-392.
12. Xurramovna, Q. G., & To'raqulovna, D. M. (2025, December). "FARHOD VA SHIRIN" DOSTONIDAGI ONOMOSTIK BIRLIKLARNING BADIIY-POETIK AHAMIYATI. In *INTERNATIONAL CONFERENCE ON SUPPORT OF MODERN SCIENCE AND INNOVATION.* (Vol. 1, No. 5, pp. 58-61).
13. Saidmuradova, S., & Madina, T. L. (2024). ALISHER NAVOIY SHE'RIYATI POETIKASI. *PEDAGOGS*, *57*(1), 147-152.